

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI MULOQOTGA O'RGATISH  
TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Jumayeva Muhabbat Ergash qizi**

*Termiz Davlat Pedagogika instituti*

*Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(Maktabgacha ta'lim yo'nalishi)*

*I kurs magistranti*

**Ilmiy rahbar: Berdiyeva Muhabbat Mengliyevna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni muloqotga o'rgatish, kommunikativ nutqini rivojlantirishning amaliy asoslarini va shakllantirish yo'llarini, Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni muloqotga kirishidagi muammolari, tarbiyachilar bilishi zarur bo'lgan masalalar va ma'lumotlarni haqida.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha katta yoshdagi bolalar, muloqot, kommunikativ nutq, „Ilk qadam“ davlat o'quv dasturi, „Ilm yo'li“ variantiv o'quv dasturi, jamiyat, mimika, manolog, dialog, dunyoqarash, ravon nutq, so'z boyligi, adabiy nutq, ijtimoiy hayot, kommunikativ kompensatsiya, integrallashgan mashg'ulotlar;

Bugungi kun yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularning dunyo qarashini kengaytirish va bolalar o'rtasida o'zaro muloqotga o'rgatish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham biz o'z tarbiyalanuvchilarimizning nutqini ravon, sof adabiy tilda so'zlashishi va muloqotda faol foydalanishi, so'z boyligini boyitish va nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish kabi vaziyatlarda ularga to'g'ri ta'lim berib, ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisiga aylantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishimiz bugungi kun talablaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozir butun dunyoda Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, integrallashgan mashg'ulotlar orqali tarbiyalanuvchilarni nutqiy faoliyati va so'z zaxirasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid qator ilmiy izlanishlar yo'lga qo'yilgan. Shu munosabat bilan Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompensatsiyani shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalari bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarda o'zaro muloqotchanlik va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Darvoqe, o'yin texnologiyalari va nutq vosialari (dialog, manolog, poliolog, mimikalar) yordamida Maktabgacha katta

yoshdagi bolalarda kommunikativ kompensatsiyani shakllantirish va rivojlantirishning metodim shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etmoqda.

Yurtimizda Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutq va nutqiy muloqotga o'rgatishda xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda. „Ilk qadam“ maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv dasturi va „Ilk qadam“ davlat dasturi asosida yaratilgan „Ilm yo'li“ variativ dasturlarini amalga oshirish jarayonida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini tarkib toptirish, nutqini boyitish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini ishlab chiqish muhim bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish komsepsiyasida „Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uchun shart-sharoitlarini yaratish, Maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarini, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish“ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda Maktabgacha ta'limda katta islohatlar amalga oshirilyapti, lekin, o'quv tarbiyaviy jarayonlarida bolalarning Maktabgacha ta'limdan maktabga moslashishi, tengdoshlari va atrofidagi yaqinlari, ijtimoiy hayotda muloqotga kirishishi qiyin bo'lib qolmoqda.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning muloqotga kirishishi, so'z boyligi va so'z boyligidan kundalik hayotida nutqida qo'llashini kuzatish ishlari orqali tahlil qilinganimizda, mavzumizning dolzarbligini quyidagicha izohlaymiz:

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning lug'at boyligi va so'z zaxirasi uning kelgusida ta'lim bosqichlaridagi bilimlarni egallashga yetarli emasligi, boshlang'ich ta'limdagi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi;

-Katta yoshdagi bolalar o'zing fikrlarini erkin ifodalay olishi, nutqiy muhitga mos ravishda muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirib rivojlantirishning didaktik ta'limotining yetarli emasligi;

-Ota-onalar o'z farzandlarining maktab ta'limiga nutqiy mos ravishda tayyor va mos ekanligi yoki nutqiy o'zlashtirish darajasining yetarliligi yoki yetarli emasligi haqidagi ma'lumot va bilimlardan habardor emasligi;

-Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni muloqotda va tengdoshlari orasidagi kommunikativ munosabatlar davomida o'z fikrlari emotsional holatlarini so'zlar bilan ifodalay olmasliklari.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish juda muhimdir. Chunki Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning

kelgusidagi bilim va axborotlarni qabul qilishida nutqiy kommunikativ kompensatsiyalarining rivojlanganligi g'oyatda muhimdir.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda biz Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda katta yoshli bolalar nutqini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanamiz:

- 1.Hikoya tuzish orqali
- 2.Badiiy adabiyot bilan tanishtirish orqali
- 3.Muloqot bilan
- 4.Atrof-olam bilan tanishtirish orqali
- 5.Ko'rgazmali qurollar orqali

Bundan tashqari oilada sof adabiy tilda so'zlashish va bolaning yoshiga mos keladigan so'zlardan foydalanish bilan uning so'z zaxira boyligini oshirish orqali hamda ularga o'z ota-onalari,oila azolari har bir so'zning ma'nosini tushuntirish orqali bola nutqida foydalanadigan so'zlarni to'g'ri qo'llay oladi.Shuning bilan birga kognitiv rivojlanishi ham o'sib boradi.

Xulosada men shuni aytmoqchimanki,biz Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni muloqotga o'rgatish yo'llarini samarali a To'g'ri qo'llashimiz orqali ularni o'z ona tiliga mehr-muhabbat, cheksiz hurmat ruhida tarbiyalaymiz.O'z xohish-istaklarini yaqinlari va boshqa insonlarga bemalol yetkazadigan va ijtimoiy jamiyatda faol axborot,bilim,ma'lumotlarni qabul qilib,o'zlashtiradigan faol-barkamol shaxs bo'lib yetishadi.Kelajakda ham o'z kasbini egallashiga ham ijobiy tasirini ko'rsatadi.Eng asosiysi,bola jamiyatimizda faol muloqotchi,yetuk kadr,o'z ishining puxta ishchisi va xorijiy tillarni ham o'rganib nutqida To'g'ri qo'llovchi komil inson bo'lib yetishadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son). 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.

3. Abduhakimova M.K. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy –pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Avtoref. ped.fan.nom.-T.: 2004.-22 b. 4F.R.Qodirova,,Bolalar nutqini rivojlantirish nariyasi va metodikasi'' .T.,,Istiqolol''2016.

5.Uljaeva.U.F.,,Didactik games in preschool educational system.2020.(4-2(149))27-29

6.www.google.com.uz

7.www.ziyonet.comTermiz Davlat Pedagogika institute Maktabgacha ta'lim yo'nalishi